



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI HUZURIDAGI
SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI
QO‘MITASINING
QARORI**

O‘zbekiston Respublikasi “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-iyuldagi PF–6035-son “Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og‘irligi va tig‘izligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi (0069-24-son SanQvaN) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Раис

Тошкент ш.
2024 йил 22 февраль,
8-сон



Yusupaliyev B. K.

Келишилди:

Vazir

Тошкент ш.
2024 йил 17 февраль,

Бош директор

Тошкент ш.
2024 йил 20 февраль,



Musayev B. A.



Abdukayumov A. A.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik
va jamoat salomatligi qo'mitasining 2024 yil
22-fevraldagi 8-son qaroriga
ILOVA

**Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi,
mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha
mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)**

Mazkur sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlari (bundan buyon matnda sanitariya qoidalari deb yuritiladi) ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur sanitariya qoidalarida quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

zararli ishlab chiqarish omili – ta'siri xodimning kasb kasalligiga chalinishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omili;

ish o'rni – xodimlarning mehnat faoliyati jarayonida doimo yoki vaqtincha bo'lish joyi;

kasb kasalligi – ushbu kasb uchun xos bo'lgan hamda ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayonining zararli va xavfli omillari ta'siri natijasida xodim chalingan kasallik;

mehnat sharoitini gigienik normativlari (REK, RED) – butun mehnat faoliyati davomida, har kuni (yakshanba kundan tashqari) haftasiga 40 soatdan oshmagan holda ishlash jarayonida insonlar va ularning keyingi avlodi organizmida zamonaviy usullar yordamida aniqlanadigan kasalliklarni va o'zgarishlarni yuzaga keltirmaydigan zararli ishlab chiqarish omillari darajalari;

mehnat sharoitlari – xodimning ish layoqati va sog'lig'iga ta'sir ko'rsatuvchi ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni omillari yig'indisi;

ish qobiliyati – insonning talab etiladigan vaqt oralig'ida topshirilgan sifatida ishning aniq miqdorini bajarish qobiliyatini tavsiflaydigan organizmning fiziologik va psixologik funksiyalari imkoniyatlari bilan belgilanadigan insonning holati;

og'ir mehnat sharoitlari – mehnat faoliyati davrida insonning organizmida kasb kasalliklari kelib chiqishiga, yengil, o'rta og'ir va og'ir darajadagi kasbiy ish qobiliyatini yo'qotishiga olib keladigan mehnat sharoiti;

xavfli ishlab chiqarish omili – ta'siri xodimning jarohat olishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omili. Miqdoriy tavsifiga va amal qilishining davomiyligiga bog'liq ravishda ayrim zararli ishlab chiqarish omillari xavfli bo'lishi mumkin;

nam termometr bo'yicha harorat indeksi (WBGT indeksi) – havoning harakat tezligiga, namligiga, issiqlik nurlanishiga va atrof-muhit bilan issiqlik almashinuvida havo haroratini birgalikda ta'sir qilishini aks ettiruvchi empirik integral ko'rsatkich.

2-bob. Zararlilik va xavflilik darajasi bo'yicha mehnat sharoitlari sinflari

2. Zararlilik va xavflilik darajasi bo'yicha mehnat sharoitlari quyidagi to'rtta sinfga bo'linadi:

1-sinf (maqbul mehnat sharoitlari) – bunda xodimlarning salomatligi saqlanishini ta'minlash bilan birga ish qobiliyatini yuqori darajasini ushlab turish uchun dastlabki shart-sharoitlar yaratib beriladi. Ishlab chiqarishdagi maqbul sharoitlarda noqulay omillar, aholi uchun xavfsiz sifatida qabul qilingan darajalardan oshib ketmasligi kerak;

2-sinf (ruxsat etilgan mehnat sharoitlari) – ish o'rni uchun belgilangan gigiyenik normativlardan oshib ketmaydigan muhit va mehnat jarayoni omillarining darajalari, bunda organizmning funksional holatidagi o'zgarishlar reglamentlangan dam olishdan keyin yoki keyingi smena boshlanishiga tiklanadi va xodimlarning salomatlik holatiga uzoq davom etadigan vaqt davomida salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Maqbul va ruxsat etilgan sinflar xavfsiz bo'lgan mehnat sharoitlariga mos keladi;

3-sinf (zararli bo'lgan mehnat sharoitlari) gigiyenik normativlardan oshib ketadigan hamda xodimlar organizmiga nojo'ya ta'sir ko'rsatadigan zararli ishlab chiqarish omillarini mavjudligi. Zararli bo'lgan mehnat sharoitlari gigiyenik normativlarni oshish darajalari va xodimlar organizmida yaqqol namoyon bo'ladigan o'zgarishlar bo'yicha zararlilik quyida ko'rsatilgan to'rtta darajaga bo'linadi:

3-sinfning 1 darajasi (3.1) – zararli omil darajalarini gigiyenik normativlaridan og'ishi bilan ta'riflanuvchi zararli mehnat sharoitlari, organizmda funksional o'zgarishlarni yuzaga keltirib, ular zararli bo'lgan omillar bilan uzoq vaqt davomida aloqa uzilgandan keyin qayta tiklanadi;

3-sinfning 2 darajasi (3.2) – ko'p holatlarda ish qobiliyatini vaqtincha yo'qotish bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni o'sishiga, umumiy kasalliklar sonini ortishiga, uzoq davom etadigan (15 yildan ortiq) mehnat sharoitidan so'ng kasbiy kasalliklarni dastlabki belgilarini paydo bo'lishiga, barqaror bo'lgan funksional buzilishlarga olib keluvchi zararli ishlab chiqarish omillarining ma'lum darajalariga ega bo'lgan zararli mehnat sharoitlari;

3-sinfning 3 darajasi (3.3) – kasb kasalliklarini, mehnat faoliyati davrida yengil va o'rtacha daraja og'irlikda rivojlanishiga, ish qobiliyatini vaqtincha yo'qotish bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni oshib ketishiga, surunkali umumiy somatik patologiyalarni o'sishiga olib keladigan zararli va xavfli bo'lgan ishlab chiqarish omillari darajalariga ega zararli, og'ir mehnat sharoitlari;

3-sinfning 4 darajasi (3.4) – kasbiy kasalliklarni og'ir shakllari (umumiy ish qobiliyatini yo'qotish bilan kechadigan) kelib chiqishi, surunkali kasalliklar sonini ahamiyatli ravishda o'sishi va ish qobiliyatini vaqtincha yo'qotish bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni yuqori darajalari qayd qilinishi mumkin bo'lgan juda zararli va og'ir mehnat sharoitlari.

4-sinf – smena davomida o'limga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omillari bilan tavsiflanadigan o'ta xavfli mehnat sharoitlari.

3-bob. Ish o'rni havosidagi zararli kimyoviy va biologik moddalar tarkibiga hamda fizik omillar ta'siriga ko'ra mehnat sharoitlarini baholash

3. Mehnat sharoitining zararlilik darajasi SanQvaN “Ish o‘rni havosidagi zararli moddalarning ruxsat etilgan konsentratsiyalarining gigiyenik normativlari” 0294-11-son talablariga binoan zararli moddalarni gigiyenik normativlardan oshib ketish darajalari bo‘yicha belgilanadi.

4. Ish o‘rni havosida bir vaqtning o‘zida bir xil ta’sirga ega bir nechta zararli moddalar va biologik omillar me’yori quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\frac{K_1}{REK_1} + \frac{K_2}{REK_2} + \dots + \frac{K_n}{REK_n} \leq 1$$

bu yerda:

$K_1, K_2, \dots, K_n$ - ish o‘rni havosidagi zararli moddalarning haqiqiy miqdori;

$REK_1, REK_2, \dots, REK_n$ - ish o‘rni havosidagi zararli moddalarning ruxsat etilgan konsentratsiyasi.

5. Ish o‘rni havosida bir vaqtning o‘zida turli xil ta’sir qiluvchi ikki va undan ortiq zararli moddalar bo‘lsa, mehnat sharoitini baholash quyidagi tarzda o‘tkaziladi:

zararlilikni eng yuqori sinfiga va darajasiga mos keladigan moddalar konsentratsiyasi bo‘yicha;

3.1-sinfiga mos keladigan darajadagi moddalarni xohlagan miqdorda bo‘lishi mehnat sharoitini zararlilik darajasini oshirmaydi;

3.2-sinfi darajasidagi uch va undan ortiq moddalar mehnat sharoitlarini 3.3-sinfi darajasiga o‘tkazadi;

3.3-sinfi darajasidagi ikki va undan ortiq zararli bo‘lgan moddalar mehnat sharoitlarini

3.4-sinfiga o‘tkazadi. Xuddi shu tarzda 3.4-sinfdan 4-sinfga o‘tkazish amalga oshiriladi.

6. Agarda biror modda bir yoki undan ko‘p bo‘lgan maxsus samara ko‘rsatish ta’siriga (kanserogen, mutagen, allergen, qo‘zg‘atuvchi, fibrogen ta’sir) ega bo‘lsa mehnat sharoiti bir pog‘ona yuqori darajaga o‘tkaziladi. Ish o‘rni havosida zararli moddalar miqdorining darajasiga bog‘liq bo‘lgan mehnat sharoitlari sinflari 1–ilovada, biologik omillarning ish o‘rni havosidagi miqdoriga ko‘ra mehnat sharoitlari sinflari 2–ilovada keltirilgan ko‘rsatkichlarga muvofiq baholanishi lozim.

7. Ish kuni (smenasi) davomida xodimga turli davriy (doimiy va doimiy bo‘lmagan (tebranuvchi, impulsi, shovqin) va spektral (tonal shovqin) tavsifga ega bo‘lgan shovqin ta’sir qilsa, ekvivalent tovush darajasi o‘lchanishi yoki hisoblanishi zarur. Impuls va tonal shovqinning hisoblangan yoki o‘lchangan ekvivalent tovush darajasi 5 dBA ga orttiriladi, shundan so‘ng olingan natijani RED bilan taqqoslash mumkin.

8. Xodimga doimiy tebranish (umumiy va mahalliy) ta’sir qilganda, mehnat sharoitlarini baholash vibrotezlanishning ekvivalent tuzatilgan darajasini o‘lchash yoki hisoblash orqali amalga oshirilishi kerak. Xodimga doimiy bo‘lmagan tebranish (umumiy va mahalliy) ta’sir qilganda, mehnat sharoitlarini baholash tebranishning ekvivalent (energiya bo‘yicha) darajasini integral baholash usuli bilan amalga oshirilishi zarur. Xodimga ish kuni (smenasi) davomida ham doimiy, ham doimiy bo‘lmagan tebranish (umumiy va mahalliy) ta’sir qilganda, mehnat sharoitlarini baholash vibrotezlanishning ekvivalent tuzatilgan darajasini o‘lchash yoki hisoblash (ularning ta’sir qilish davomiyligini hisobga olgan holda) orqali amalga oshirilishi kerak.

9. Xodimga ish kuni (smenasi) davomida ham doimiy, ham doimiy bo‘lmagan infratovush ta’sir qilganda, mehnat sharoitlarini baholash ekvivalent umumiy tovush bosimi darajasini (ekvivalent dBLin) o‘lchash yoki hisoblash (ularning ta’sir qilish davomiyligini hisobga olgan holda) orqali amalga oshirilishi zarur. Shovqin, infratovush, ultratovush, tebranish, havo ionizatsiyasi darajalariga bog‘liq holda mehnat sharoiti sinflari 3–ilovada, ionlanmagan elektromagnit maydonlari va nurlanishlari ta’sir qilganda zararlilik va

xavflilik sinfi 4-ildavda, optik diapazonda ionlanmagan elektromagnit nurlanishlar ta'sir qilganda zararlilik va xavflilik sinfi 5-ildavda keltirilgan ko'rsatkichlarga muvofiq baholanishi kerak.

4-bob. Mikroiklim, yoritilganlik, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlariga ko'ra mehnat sharoitlarini baholash

10. Mikroiklim ko'rsatkichlariga ko'ra mehnat sharoitlarini baholashda issiqlik va (yoki) sovuqning sun'iy manbai bo'lgan texnologik uskunalarning ishchi hududda foydalanishi, havo harorati, namligi, havo tezligi va (yoki) issiqlik nurlanishi hamda mikroiklim ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

birinchi bosqichda mehnat sharoitlari havo harorati ko'rsatkichi asosida baholanadi;

ikkinchi bosqichda mehnat sharoitlari havo namligi, havo harakati tezligi va (yoki) issiqlik nurlanishi asosida baholanadi.

Mikroiklim ko'rsatkichlari bo'yicha zararlilik va xavflilik sinfi 6-10 – ilovalarda keltirilgan ko'rsatkichlarga muvofiq baholanishi zarur.

11. Xodim organizmiga tashqi issiqlik yuklamasini baholashda WBGT-indeks integral ko'rsatkichidan foydalaniladi. WBGT-indeksini hisoblash mazkur sanitariya qoidalarining 11-ildavasi bo'yicha amalga oshirilishi zarur.

12. 1000 Wt/m^2 dan ortib ketuvchi issiqlik nurlanishi mehnat sharoitining WBGT-indeks kattaligidan qat'iy nazar zararli va xavfli hisoblanadi.

13. Bir xil darajadagi ikkita omil ta'sir qilganda (WBGT-indeksi va issiqlik nurlanishi), mehnat sharoiti bir pog'ona yuqori darajaga o'tkaziladi.

14. Yilning iliq davrida (tashqi havo harorati 10°C dan baland bo'lganda) ochiq hududda ishlaganda mehnat sharoitini baholash uchun 6-ildavda keltirilgan mikroiklim ko'rsatkichlariga asoslanish zarur. Smena davomida turli mikroiklim ta'sirida bo'ladigan xodimlar uchun mikroiklim ko'rsatkichi bo'yicha mehnat sharoiti 12-ildavda keltirilgan ko'rsatkichlarga muvofiq baholanishi lozim.

15. Yoritilganlik ko'rsatkichlariga ko'ra mehnat sharoitlarini baholash ish o'rnining yoritilganlik ko'rsatkichi bo'yicha amalga oshiriladi. Xodim ochiq maydonda faqat kunduzi ishlaganda, mehnat sharoitlari yoritilganlik ko'rsatkichi bo'yichaga maqbul mehnat sharoitlari deb hisoblanishi zarur. Ko'ruv maydonida ko'zni qamashtiruvchi, yo'nalishli tarqoq va aralash yorug'likni aks ettiruvchi ish o'rni va farqlash obyekti (metallar, plastmassalar, shisha, yaltiroq qog'oz) bilan ishlovchi hamda ko'rishda noqulayliklardan shikoyat qiluvchi xodimlarning ish o'rnida to'g'ridan-to'g'ri va aks ettirilgan porlash ko'rsatkichlarini baholash kerak.

16. Ionlangan nurlanish ta'siridagi mehnat sharoitlarini baholash nurlanishning potentsial dozasi quvvati – ma'lum bir ish joyida standart sharoitlarda ionlashtiruvchi nurlanish manbalari bilan ishlashda kalendar yilida olinishi mumkin bo'lgan maksimal potentsial samarali (ekvivalent) nurlanish dozasi asosida hisoblanishi zarur. Ishlab chiqarish binolarini yoritilganlik ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitining zararlilik darajasi (doimiy ish joylari uchun) 13-ildavda, ionlangan nurlanish ta'sir qilganda mehnat sharoiti (**samarali dozaning qismlariga nisbatan**) 14-ildavda, atmosfera bosimi darajasiga bog'liq holda mehnat sharoiti 15-ildavda keltirilgan ko'rsatkichlarga muvofiq baholanishi lozim.

17. Tog' jinslari tushish extimoli mavjudligiga qarab mehnat sharoitlari sinflari 16-ildavda keltirilgan ko'rsatkichlariga asoslanish zarur. Zararlilikni 3-sinfning 1, 2 yoki 3-darajalarini ikkita va undan ortiq ko'rsatkichlari mavjud bo'lganda mehnat sharoiti bir pog'ona yuqori darajaga o'tkaziladi. Mehnat jarayonining og'irligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlari sinflarini yakuniy baholash jadvali 17-

ilovada va mehnat jarayonining diqqat talabligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlari sinflari 18-ilovada keltirilgan ko'rsatkichlarga muvofiq baholanishi kerak.

**5-bob. Mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi
ko'rsatkichlariga qarab ish sharoitlarini baholash**

18. Mehnat jarayonining og'irligi ko'rsatkichi bo'yicha mehnat sharoiti eng yuqori sinfga (kichik sinfga) ega bo'lgan ko'rsatkich bo'yicha belgilanadi. Agar mehnat jarayonining og'irligining 3.1 yoki 3.2 kichik sinfga kiruvchi ikki yoki undan ortiq ko'rsatkichlari mavjud bo'lsa, mehnat sharoitlari mos ravishda bir pog'ona yuqori baholanadi.

19. Mehnatning tig'izligini baholashda mehnat faoliyati va uning strukturasini ish kuni, haftalar davomida xronometraj kuzatuvlar yo'li bilan o'rganish asosida amalga oshiriladi. Mehnat jarayoni tig'izligi ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda mehnat sharoitlari sinflari 19-ilovada keltirilgan ko'rsatkichlarga muvofiq baholanishi lozim.

Ishlab chiqarish omillarini kombinatsiyalangan va uyg'unlashtirilgan ta'sir qilishini hisobga olgan holda mehnat sharoitlarini baholashda o'lchash natijalariga asosan aniqlangan har bir omillar uchun yuqorida bayon etilgan bandlarga muvofiq baholanadi. Zararlilik va xavflilik darajalari bo'yicha mehnat sharoitlari sinflari yakuniy natijalarini rasmiylashtirish 20-ilovada keltirilgan shaklga ko'ra amalga oshirilishi lozim.

Mehnat sharoitini zararlilik va xavflilik darajalari bo'yicha umumiy baholash quyidagicha belgilanadi:
zararlilikni eng yuqori sinfi va darajasi bo'yicha;

3 va undan ortiq omillar 3.1-sinfga mansub bo'lsa, mehnat sharoiti 3.2-sinfga mos keladi;

3.2, 3.3, 3.4-sinflariga kiruvchi ikkita va undan ortiq omillar mavjud bo'lganda, mehnat sharoitlari mos ravishda bir pog'ona yuqori baholanadi.

20. Mazkur sanitariya qoidalarini ishlab chiquvchilar ro'yxati 21-ilovada keltirilgan.

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)ga

1-ILOVA

Ish o'rni havosida zararli moddalar miqdorining darajasiga bog'liq bo'lgan mehnat sharoitlari sinflari

№	Zararli moddalar	Mehnat sharoitlari sinflari					
		Ruxsat etilgan- 2	Zararli – 3 sinf darajalari				O'ta xavfli, ekstremal 4***
			3.1 – birinchi darajali zararli, og'ir	3.2 – ikkinchi darajali zararli, og'ir	3.3 – uchinchi darajali zararli, og'ir	3.4 - juda zararli, o'ta og'ir, xavfli***	
1.	REK oshib ketishi, marta						
2.	1-2-sinf xavflilikka ega zararli moddalar, keyingi ilovalarda keltirilgan omillar bundan mustasno	≤REK	1.1-3	3.1-6	6.1-10	10.1-20	>20
3.	3-4-sinf xavflilikka ega zararli moddalar, keyingi ilovalarda keltirilgan omillar bundan mustasno	≤REK	1.1-3	3.1-10	>10		
4.	Qo'zg'atish ta'sir kuchiga ega, o'tkir yo'naltirilgan mexanizmlı ta'sir etuvchi, o'tkir zaharlanishning rivojlanishiga olib keluvchi xavfli moddalar	≤REK	1.1-2	2.1-4	4.1-6	6.1-10	>10
5.	Allergenlar	≤REK	1.1-2.0	2.1-3	3.1-10	>10	
6.	Uzaytirilgan ta'sir kuchiga ega kanserogenlar, mutagenlar va boshqalar	≤REK	1.1-3	3.1-6	6.1-10	>10	
7.	Aerozollar, asosan fibrogen ta'siriga ega	≤REK	1.1-2	2,1-5	5.1-10	>10	
8.	O'smaga qarshi dorivor vositalar, gormonlar (estrogenlar) *					**	
9.	Narkotik analgetiklar**			**			

Izoh: * – ushbu moddalar “Ish o'rni havosida zararli moddalarni ruxsat etilgan konsentratsiyasi” 0294-11-sonli SanQvaN talablariga muvofiq me'yorlanadi. Mazkur moddalar bilan ishlaganda ish o'rni havosini majburiy nazorat qilib turish, moddalarning nafas olish organlari va teriga tushmasligini ta'minlash kerak. Xavflilikni 1 sinfiga mansub teri orqali kiruvchi moddalar uchun 1-ilovaning 7-qatoridan foydalaniladi.

** - ushbu moddalarni ishlab chiqarishda, shuningdek onkologik dispanser va bo'linmalarda ular bilan ishlash mehnat sharoitlarini jadvalda keltirilgan sinflarga kiritish huquqini beradi.

*** - o'tkir ta'sirga ega moddalar miqdori REK dan 10 marta oshib ketishi o'tkir zaharlanishga olib keladi.

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)ga

2- ILOVA

Biologik omillarning ish o'rni havosidagi miqdoriga ko'ra mehnat sharoitlari sinflari

№	Nomi	Mehnat sharoitlari sinflari					
		Ruxsat etilgan - 2	Zararli – 3 sinf darajalari				O'ta xavfli, ekstremal -4
			3.1 – birinchi darajali zararli, og'ir	3.2 - ikkinchi darajali zararli, og'ir	3.3 – uchinchi darajali zararli, og'ir	3.4 - juda zararli, o'ta og'ir, xavfli	
	1***	2	3	4	5	6	7
1.	O'ta xavfli infeksiyalarning patogen mikroorganizmlari						*
	Boshqa yuqumli kasalliklarni qo'zg'atuvchi patogen mikroorganizmlar					*	
2.	Tarkibida tirik hujayra va mikroorganizmlar sporalari bor mikroorganizmlar – produtsentlar, preparatlar; (REKdan oshib ketishi, marotaba)	≤REK	1.1-3	3.1-10	>10		
3.	Oqsil preparatlari (REK oshib ketish, marta)	≤REK	1.1-2.0	2.1-5.0	5.1-10	>10	
4.	Diagnostika va ilmiy-tadqiqot maqsadlarida odamlar va hayvonlar materiallarini, shuningdek o'limtik materiallarni o'rganish ishlari				**		

Izoh: * – ixtisoslashtirilgan tibbiyot, veterinariya muassasalari va kasal hayvonlar uchun ixtisoslashtirilgan bo'linmalarida ishlash mehnat sharoitini jadvalda ko'rsatilgan sinfga kiritish huquqini beradi.

** – Diagnostika va ilmiy-tadqiqot maqsadlarida odamlar va hayvonlar materiallarini, shuningdek o'limtik materiallarni o'rganish ishlari mehnat sharoitlari uchinchi sinfning uchinchi darajasiga tegishli.

*** – teri ishlab chiqarish korxonalari, go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida, kanalizatsiya tizimlarini ta'mirlash va xizmat ko'rsatishda patogen mikroorganizmlar bilan aloqada bo'lish ehtimoli bor ish turlari uchinchi sinfning ikkinchi darajasiga tegishli.

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)ga

3-ILOVA

Shovqin, infratovush, ultratovush, tebranish, havo ionizatsiyasi darajalariga bog'liq holda mehnat sharoiti sinflari

№	Omillar	Mehnat sharoitlari sinflari					
		Ruxsat etilgan - 2	Zararli – 3 sinf darajalari				O‘ta xavfli ekstremal -4
			3.1 – birinchi darajali zararli, og‘ir	3.2 - ikkinchi darajali zararli, og‘ir	3.3 – uchinchi darajali zararli, og‘ir	3.4 - juda zararli, o‘ta og‘ir, xavfli	
Ruxsat etilgan daraja (RED) oshib ketish, darajagacha:							
1.	Har qanday oktava chizig‘idagi tovush bosimining RED maksimal oshib ketgan shovqini, dB	RED	<10	20	30	40	>40
	Shovqin tovush darajasi, ekvivalent tovush darajasi, dBA	RED	5	15	25	35	>35
2.	Har qanday oktava chig‘idagi tovush bosimining RED maksimal oshib ketgan infratovush,dB	RED	5	10	15	20	>20
3.	Chastotalari 1/3 oktava chiziqlaridagi RED oshib ketgan havoli ultratovush, dB	RED	6	12	20	25	>25
4.	Kontaktli ultratovush: vibrotezlik, m/sek; vibrotezlikning logarifmik darajasi, dB	RED	3	6	9	12	>12
5.	Vibrotezlik bo‘yicha har qanday oktava chizig‘idagi RED maksimal oshib ketgan lokal tebranish, dB	RED	3	6	9	12**	-
	Lokal tebranish vibrotezlikning ekvivalent to‘g‘rilangan darajasi, dB	RED	3	6	9	12**	

6.	Vibrotezlik bo'yicha har qanday oktava chizig'idagi RED maksimal oshib ketgan umumiy tebranish, dB	RED	3	6	9	12**	-
	Umumiy tebranish vibrotezlikning ekvivalent to'g'rilangan darajasi, dB	RED	3	6	9	12**	
7.	Aeroionlar (1 kub. sm havodagi ionlar soni) minimal zaruriy daraja yoki maksimal ruxsat etilgan daraja	RED	SanQvaN* bo'yicha	ko'rsatkichning 2 martagacha o'zgarishi			

Izoh: * "Ishlab chiqarish xonalari mikroiklimini sanitariya-gigiyenik me'yorlari" 0324-16 sonli SanQvaN talablariga ko'ra belgilanadi.

** tebranish ko'rsatkichlari chastotalarni istalgan oktava chizig'idagi RED dan 12 dB ga oshib ketishi qat'iy man etiladi.

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)ga

4-ILOVA

Ionlanmagan elektromagnit maydonlari va nurlanishlarning ta'sir qilganda zararlilik va xavflilik sinfi

№	Omillar	Mehnat sharoitlari sinflari					
		Ruxsat etilgan - 2	Zararli – 3 sinf darajalari				O'ta xavfli, ekstremal - 4
			3.1 – birinchi darajali zararli, og'ir	3.2 – ikkinchi darajali zararli, og'ir	3.3 – uchinchi darajali zararli, og'ir	3.4 – juda zararli, o'ta og'ir, xavfli	
1.	REK oshib ketish, marta						
2.	Domiy magnit maydon	≤RED	1.1-5	5.1-10	10.1-100	>100	
3.	Elektrostatik maydon	≤RED*	1.1-3	3.1-5	5.1-10	>10	
4.	Sanoat chastotali (50 Hz) elektr maydonlari	≤RED* (barcha ish kuni uchun)	1.1-3	3.1-5	5.1-10	10.1-40	>40**
5.	Sanoat chastotali (50 Hz) magnit maydonlari	≤RED* (barcha ish kuni uchun)	1.1-5	5.1-10	10.1-50	>50	
6.	0.01-0.03 MHz radiochastotali diapazonda elektromagnitli nurlanishlar, V/m	≤RED	1.1-3	3.1-5	5.1-10	>10	
7.	0.03-3.0 MHz radiochastotali diapazonda elektromagnitli nurlanishlar, V/m	≤RED	1.1-3	3.1-5	5.1-10	>10	-
8.	3.0-30.0 MHz	≤RED	1.1-3	3.1-5	5.1-10	>10	-
9.	30.0 - 300.0 MHz radiochastotali diapazonda elektromagnitli nurlanishlar, V/m	≤RED	1.1-3	3.1-5	5.1-10	>10	>50***
10.	300.0 MHz - 300.0 GHz radiochastotali diapazonda elektromagnitli nurlanishlar, V/m	≤RED	1.1-3	3.1-5	5.1-10	>10	>50****
11.	Radiochastotali diapazonda volt qo'shimchali transformator va personal EHM yuzaga keltiradigan elektromagnitli nurlanishlar, V/m	≤RED	1.1-5	5.1-10	10.1-50	>50	

Izoh: * ish o'rnidagi elektromagnit nurlanish kattaliklarining RED amaldagi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi hujjatlarga ko'ra aniqlanadi.

** mazkur fizik omilning ta'sir qilish vaqti 0,16 soatga teng yoki undan kam bo'lgandagina ushbu RED hisobga olinishi zarur.

*** mazkur fizik omilning ta'sir qilish vaqti 0,08 soatga teng yoki undan kam bo'lgandagina ushbu RED hisobga olinishi zarur.

**** mazkur fizik omilning ta'sir qilish vaqti 0,2 soatga teng yoki undan kam bo'lgandagina ushbu RED hisobga olinishi zarur.

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)ga

5-ILOVA

**Optik diapazonda ionlanmagan elektromagnit nurlanishlar
ta'sir qilganda zararlilik va xavflilik sinfi**

№	Omillar	Mehnat sharoitlari sinflari					
		Ruxsat etilgan - 2	Zararli – 3 sinf darajalari				O'ta xavfli, ekstremal -4
			3.1 – birinchi darajali zararli, og'ir	3.2 - ikkinchi darajali zararli, og'ir	3.3 – uchinchi darajali zararli, og'ir	3.4 - juda zararli, o'ta og'ir, xavfli	
1.	Lazer nurlanish*	$\leq RED_1$	$< RED_2$	1.1-10 RED_2	10.1-100 RED_2	101-1000 RED_2	$> 1000 RED_2$
2.	Ultrabinafsha nurlanish: UB-A, UB-V, UB-C nurlanish spektrlari doiralari uchun, Wt/m^2	$\leq RENJ$	$\geq RENJ$				

Izoh: RED_1 – mazkur fizik omilning surunkali ta'sir uchun mehnat sharoitlari sinflari.

RED_2 – mazkur fizik omilning bir martalik ta'sir uchun mehnat sharoitlari sinflari.

$RENJ$ – ruxsat etilgan nurlanish jadalligi. $RENJ$ me'yoriy ko'rsatkichlardan oshib ketganda kollektiv himoya vositalaridan (tuzilishi yoki vazifasi jihatidan ishlab chiqarish binosi va ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan, xodimlarga zararli ishlab chiqarish omili va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omili ta'sirining oldini olish yoki uni kamaytirish, shuningdek ifloslanishlardan himoya qilish uchun mo'ljallangan texnik va boshqa vositalar) va (yoki) yakka tartibdagi himoya vositalaridan (zararli yoki xavfli ishlab chiqarish omillarining xodimlarga ta'sirining oldini olish yoki kamaytirish, shuningdek ifloslanishdan himoya qilish uchun foydalaniladigan texnik vositalar) foydalangan holda ishlash shart.

* ish o'rnida lazer nurlanishini nazorat qilishni imkoni bo'lmaganda mehnat sharoiti uchinchi sinfning birinchi darajasiga kiritilishi shart.

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)ga

6-ILOVA

**Yilning iliq davridagi ishlab chiqarish xonalari va ochiq hududlar uchun
mikroiqlim ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoiti sinflari**

№	Koʻrsatkich	Maqbul - 1	Mehnat sharoitlari sinflari					
			Ruxsat etilgan - 2	Zararli – 3 sinf darajalari				Oʻta xavfli, ekstremal -4
				3.1 – birinchi darajali zararli, ogʻir	3.2 - ikkinchi darajali zararli, ogʻir	3.3 – uchinchi darajali zararli, ogʻir	3.4 - juda zararli, oʻta ogʻir, xavfli	
1.	Havo harorati, °C	SanQvaN*	SanQvaN	WBGT-indeks koʻrsatkichi boʻyicha, 11 ilovaga qaralsin				
2.	Havo harakat tezligi, m/s	"-	"-	"-				
3.	Havoning nisbiy namligi, foiz	"-	"-	"-				
4.	Issiqlik nurlanishi, Wt/m ²	"-	"-	1001-1500	1501-2000	2001-2500	2501-2800	>2800

Izoh: * ko'rsatkich “Ishlab chiqarish binolari mikroiqlimining sanitar-gigiyenik me'yorlari” 0324-16-sonli SanQvaN talablariga ko'ra me'yorlanadi.

Nam termometr bo'yicha harorat indeksi (WBGT-indeks) ko'rsatkichini aniqlashning iloji bo'lmasa, umumiy qabul qilingan uslubda mikroiqlimni baholash hamda mehnat sharoiti sinflari 8 ilova bo'yicha baholanishi zarur.

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)ga

7-ILOVA

Yilning iliq davridagi issiq mikroiklimli ishlab chiqarish xonalari

va ochiq hududlar uchun WBGT-indeksi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoiti sinflari

№	Ish toifalari	Umumiy energiya sarf qilish, $Wt/m^2 \cdot s$	Mehnat sharoitlari sinflari (°C)					
			Maqbul-1	Ruxsat etilgan - 2	Zararli – 3 sinf darajalari			
					3.1 – birinchi darajali zararli, og'ir	3.2 – ikkinchi darajali zararli, og'ir	3.3 – uchinchi darajali zararli, og'ir	3.4 – juda zararli, o'ta og'ir, xavfli
1.	Havo harorati °C, ish toifalari uchun:							
2.	Ia	68(58-77), Vt/m	21.0-31.4		31.5-32.6	32.7-33.4	33.5-34.6	34.7-36.0
3.	Ib	88(78-97), Vt/m	20.2-31.1		31.2-31.3	31.4-32.2	32.3-33.2	33.3-35.6
4.	IIa	113(98-129), Vt/m	19.2-30.2		30.3-30.6	30.7-31.3	31.4-32.4	32.5-35.0
5.	IIb	145(130-160), Vt/m	18.2-30.0		30.1-30.4	30.5-31.2	31.3-32.2	32.3-34.5
6.	III	177(161-193), Vt/m	17.0-27.8		27.9-29.4	29.5-30.6	30.7-32.0	32.1-34.2

*Izoh: * - Umumiy energiya sarf bo'lishi quyida ko'rsatilgan formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:*

$$Q = 4 \times YuUT - 255,$$

bu yerda: Q - umumiy energiya sarf bo'lishi, $Wt/kV \cdot m^2$

YuUT- smena davomida yurakning o'rtacha urish tezligi bo'lib, turli xildagi ishlarni bajarish va dam olish vaqtida sarflangan vaqtni hisobga olgan holda o'rtacha aniqlangan ko'rsatkich bo'yicha aniqlanadi.

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi

(0069-24-son SanQvaN)ga

8-ILOVA

Yilning iliq davridagi ishlab chiqarish xonalari uchun mikroiklim ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoiti sinflari

№	Mikroiqlim ko'rsatkichlari*	Mehnat sharoitlari sinflari						
		Maqbul - 1	Ruxsat etilgan - 2	Zararli – 3 sinf darajalari				O'ta xavfli, ekstremal -4
				3.1 – birinchi darajali zararli, og'ir	3.2 - ikkinchi darajali zararli, og'ir	3.3 – uchinchi darajali zararli, og'ir	3.4 - juda zararli, o'ta og'ir, xavfli	
1.	Havo harorati °C, ish toifalari uchun:	kattaliklarning yuqori chegaralari:						
2.	Ia	SanQvaN bo'yicha*	SanQvaN bo'yicha	34 gacha	36 gacha	38	40 gacha va undan yuqori	
3.	Ib	SanQvaN bo'yicha	SanQvaN bo'yicha	34 gacha	36 gacha	38 gacha	40 gacha va undan yuqori	
4.	IIa	SanQvaN bo'yicha	SanQvaN bo'yicha	33 gacha	35 gacha	37 gacha	39 gacha va undan yuqori	
5.	IIb	SanQvaN bo'yicha	SanQvaN bo'yicha	32 gacha	34 gacha	36 gacha	38 gacha va undan yuqori	
6.	III	SanQvaN bo'yicha	SanQvaN bo'yicha	30 gacha	32 gacha	34 gacha	36 gacha va undan yuqori	
7.	Issiqlik nurlanishi, Wt/m ²	SanQvaN bo'yicha	SanQvaN bo'yicha	1001-1500	1501-2000	2001-2500	2800	>2800
ruxsat etilgan kattaliklardan oshib ketish, marta:								
	Havo harakati tezligi, m/s	SanQvaN bo'yicha	SanQvaN bo'yicha	2 gacha	2.5	3	>3	
ruxsat etilgan kattaliklardan oshib ketish, marta:								
	Havoning nisbiy namligi, foiz	SanQvaN bo'yicha	SanQvaN bo'yicha	10	15	20	25	

Izoh: * mazkur ko'rsatkich "Ishlab chiqarish xonalari mikroiklimini sanitariya-gigiyenik me'yorlari"0324-16 sonli SanQvaN talablariga ko'ra belgilanadi.

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)ga

9-ILOVA

**Ishlab chiqarish binolari uchun yilning sovuq davrida
mikroiqlim ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoiti sinflari**

№	Ish toifalari*	Mehnat sharoitlari sinflari						
		Maqbul - 1	Ruxsat etilgan - 2	Zararli – 3 sinfi darajalari				O'ta xavfli, ekstremal -4
				3.1 – birinchi darajali zararli, og'ir	3.2 - ikkinchi darajali zararli, og'ir	3.3 – uchinchi darajali zararli, og'ir	3.4 - juda zararli, o'ta og'ir, xavfli	
1.	Havo harorati °C:	kattaliklarni pastki chegaralari:						
2.	Ia – kategoriyali ishlar uchun	SanQvaN* bo'yicha	SanQvaN bo'yicha	18	16	14	12	
3.	Ib – kategoriyali ishlar uchun	“-	“-	17	15	13	11	
4.	IIa – kategoriyali ishlar uchun	“-	“-	14	12	10	8	
5.	IIb – kategoriyali ishlar uchun	“-	“-	13	11	9	7	
6.	III – kategoriyali ishlar uchun	“-	“-	12	10	8	6	
ruxsat etilgan kattaliklardan oshib ketish, marta:								
7.	Havo harakat tezligi, m/s	SanQvaN bo'yicha	SanQvaN bo'yicha	do 2	2.5	3	>3	
ruxsat etilgan kattaliklardan oshib ketish, marta:								
8.	Havoning nisbiy namligi, foiz	SanQvaN bo'yicha	SanQvaN bo'yicha	10	15	20	25	
9.	Issiqlik tarqalishi, Wt/m ²	SanQvaN bo'yicha	SanQvaN bo'yicha	1001-1500	1501-2000	2001-2500	2501-2800	>2800

Izoh: * mazkur ko'rsatkich "Ishlab chiqarish xonalari mikroiqlimini sanitariya-gigiyenik me'yorlari" 0324-16 sonli SanQvaN talablariga ko'ra me'yorlanadi. Havo harakat tezligi me'yoriy ko'rsatkichdan 0,1 m/s ga oshib ketsa havo harorati me'yoriy ko'rsatkichini 0,2°C ga oshirish zarur.

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)ga

10-ILOVA

Yilning sovuq davridagi (qish) ochiq hududlar, isitilmaydigan va texnologik me'yorlar bo'yicha sovutiladigan xonalar uchun mikroiklim ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoiti sinflari

№	Zararli moddalar	Mehnat sharoitlari sinflari					
		T**	Zararli – 3 sinf darajalari				O'ta xavfli, ekstremal -4
			3.1 – birinchi darajali zararli, og'ir	3.2 - ikkinchi darajali zararli, og'ir	3.3 – uchinchi darajali zararli, og'ir	3.4 - juda zararli, o'ta og'ir, xavfli	
1.	Havo harorati, °C*	-	-(6-10)	-(10,1-14,0)	-(14,1-18,0)	-(18,1-22,0)	> -22,0

Izoh: *Harorat ko'rsatkichlari to'g'ri mehnat va dam olish tartibiga rioya qilinuvchi ish o'rinlariga taalluqli. Havo harakat tezligining me'yoriy ko'rsatkichdan oshib ketgan har 1 m/s uchun havo harorati me'yoriy ko'rsatkichini 2,2°C ga oshirish zarur.

** QMQ 2.01.01-94-son "Loyihalash uchun iqlimiy va fizio-geologik ma'lumotlar" talablariga ko'ra korxona joylashgan hudud uchun eng sovuq oyning o'rtacha minimal harorati.

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va
xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi
ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining
gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)ga

11-ILOVA

WBGT – indeksini hisoblash

1. WBGT – indeksini hisoblash usuli mikroiklim harorati, havo namligi, issiqlik nurlanishi jadalligi, shuningdek metabolizm darajasini tashkil qiluvchi ko'rsatkichlarni birgalikda ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda inson organizmiga tashqi issiqlik yuklamasini baholashga asoslangan bo'ladi.

2. WBGT-indeksi binodan tashqarida quyosh radiatsiyasi yuklamasida yoki binoni ichida issiqlik nurlanishida quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$WBGT = 0.7 t_{nam} + 0.1 t_q + 0.2 t_{sh}$$

Binoning ichida (issiqlik nurlanishi bo'lmaganda) yoki tashqaridan quyosh yuklamasi bo'lmaganda esa quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$WBGT = 0.7 t_{nam} + 0.3 t_{sh}$$

bu yerda: t_{nam} – nam termometr harorati, t_q – quruq termometr harorati va t_{sh} – sharli termometr harorati.

3. Agarda ish smenasi davomida atrof-muhit ko'rsatkichlari farq qilsa, WBGT-indeksi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$WBGT = \frac{WBGT_b + 2WBGT_q + WBGT_t}{4},$$

4

bu yerda, $WBGT_b$ – bosh darajasida o'lchangan WBGT-indeksi ko'rsatkichi, $WBGT_q$ – qorin darajasida o'lchangan WBGT-indeksi ko'rsatkichi va $WBGT_t$ – to'piq darajasida o'lchangan WBGT-indeksi ko'rsatkichi.

4. WBGT-indeksini tez aniqlash uchun maksimal issiqlik ta'siri nuqtasida ko'rsatkichni o'lchash yetarli bo'ladi. WBGT-indeksini hisoblab chiqish uchun zarur ko'rsatkichlar o'zgaruvchan bo'lsa, ularning smenadagi o'rtacha miqdori aniqlanishi zarur.

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va
xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi
ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining
gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)ga

12-ILOVA

**Smena davomida turli mikroiklim ta'sirida bo'ladigan xodimlar
uchun mikroiklim ko'rsatkichi bo'yicha mehnat sharoitini baholash**

1. Smena davomida turli mikroiklim ta'sirida bo'ladigan xodimlar uchun mikroiklim ko'rsatkichi bo'yicha mehnat sharoitini baholashda ish smenasi davomida xodimning isituvchi va sovituvchi mikroiklim ta'sirida bo'lishi foizi xronometraj asosida aniqlanishi lozim.

2. Isituvchi va sovituvchi mikroiklim ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlari sinflari mazkur sanitariya qoidalarining talablariga ko'ra aniqlanishi hamda zararlilik darajasining o'rtacha miqdori hisoblanishi zarur.

Bunda ushbu mikroiklim sharoitlarda xodimning ish smenasi davomida band bo'lishi foizini quyidagi koeffitsientlarga ko'paytirish orqali zararlilik darajasi aniqlanadi:

- a) mehnat sharoitining 3.1 sinfi uchun -1;
- b) mehnat sharoitining 3.2 sinfi uchun - 2;
- v) mehnat sharoitining 3.3 sinfi uchun - 3;
- g) mehnat sharoitining 3.4 sinfi uchun - 4;
- d) mehnat sharoitining 4 sinfi uchun - 5.

3. Xodimlar organizmi turli mikroiklim ta'sirida bo'lgani uchun zararlilik darajasi kattalashish tomonga yo'naltirilishi shart.

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)ga

13-ILOVA

Ishlab chiqarish xonalarining yorug'lik muhiti ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitining zararlilik darajasini baholash (doimiy ish joylari uchun)

№	Ko'rsatkichlar	Mehnat sharoitlari sinflari					
		Ruxsat etilgan - 2	Zararli – 3 sinf darajalari				O'ta xavfli, ekstremal -4
			3.1 – birinchi darajali zararli, og'ir	3.2 - ikkinchi darajali zararli, og'ir	3.3 – uchinchi darajali zararli, og'ir	3.4 - juda zararli, o'ta og'ir, xavfli	
1.	Tabiiy yorug'lik (KEO, foiz)	TYoKm SanQvaN bo'yicha	<0,6 TYoKm	mavjud emas			
2.	Qo'shimcha yorug'lik (KEO, foiz)	TYoKm SanQvaN bo'yicha	0,8 TYoKm	<0,7 TYoKm	<0,5 TYoKm	<0,25 TYoKm	
3.	Sun'iy yoritilishida ish o'rni yuzasidagi yorug'lilik, (E, lk)	Em SanQvaN bo'yicha	0,5 Em	<0,5 Em			
4.	Yorug'lik manbaining ko'zni qamashtiradigan yarqirashi (ko'zni qamashtirish ko'rsatkichi, R, nisbiy birlik)	Rm SanQvaN bo'yicha	R>Rm				
5.	Qaytarilgan yarqirashlik	mavjud emas	mavjud				
6.	Yoritilganlik pulsatsiyasi (yoritilganlik pulsatsiyasi koeffitsiyenti, Kp, foiz)	Kpm SanQvaN bo'yicha	Km>Kpm				

Izoh:

Em– yoritilganlikning me'yoriy ko'rsatkichi;

Rm – ko'zni qamashtiruvchi yorituvchanlikning me'yoriy ko'rsatkichi;

Kp m - pulsatsiya koeffitsientining me'yoriy ko'rsatkichi;

TYoKm – tabiiy yorug'lik koeffitsiyentining me'yoriy ko'rsatkichi.

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)ga

14-ILOVA

**Ionlangan nurlanish ta'sir qilganda mehnat sharoitini baholash
(samarali dozaning qismlariga nisbatan)**

Mehnat sharoitlari sinflari						
Maqbul -1	Ruxsat etilgan- 2	Zararli – 3 sinf darajalari				O'ta xavfli, ekstremal -4
		3.1 – birinchi darajali zararli, og'ir	3.2 - ikkinchi darajali zararli, og'ir	3.3 – uchinchi darajali zararli, og'ir	3.4 - juda zararli, o'ta og'ir, xavfli	
Ionlangan nurlanish, samarali doza*	0.05	0.055-0.1	0.105-0.25	0.255-0.5	0.51-1	>1

Izoh: * - A toifasidagi samarali doza “Radiatsion xavfsizlikning normalari (RXN-2006) va radiatsion xavfsizlikni ta'minlashning asosiy sanitar qoidalar” 0193-06-son SanQvaN talablariga muvofiq butun inson tanasi va uning alohida a'zolari va to'qimalariga ularning radiosezgirlikni hisobga olgan holda nurlanishning uzoq muddatli oqibatlari xavfining o'lchovi sifatida foydalaniladigan qiymat.

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)ga

15-ILOVA

Atmosfera bosimi darajasiga bog'liq holda mehnat sharoitini baholash

№	Ishlab chiqarish muhiti havosi bosimi	Mehnat sharoitlari sinflari						
		Maqbul 1	Ruxsat etilgan- 2	Zararli – 3 sinf darajalari				O'ta xavfli, ekstremal -4
				3.1 – birinchi darajali zararli, og'ir	3.2 - ikkinchi darajali zararli, og'ir	3.3 – uchinchi darajali zararli, og'ir	3.4 - juda zararli, o'ta og'ir, xavfli	
1.	Ko'tarilgan (atm)/GPa	tabiiy fon	1.2/1200 gacha	1.3-1.8/ 1300-1800	1.9-2.5/ 1900-2500	2.6-3.5/ 2600-3500	3.6-4.5/ 3600-4500	4.5/ 4500
2.	Pasaygan (m dengiz sathidan)/GPa		600-1000/ 912-898	1001-2000/ 894-794	2001-4000/ 790-616	4001-4500/ 610-576	4501-4500/ 567-540	>5500/ <540

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi

(0069-24-son SanQvaN)ga

16-ILOVA

Tog' jinslari tushish ehtimoli mavjudligiga qarab mehnat sharoitlari sinflari

№		Mehnat sharoitlari sinflari						
		Maqbul-1	Ruxsat etilgan- 2	Zararli – 3 sinf darajalari				O'ta xavfli, ekstremal -4
				3.1 – birinchi darajali zararli, og'ir	3.2 - ikkinchi darajali zararli, og'ir	3.3 – uchinchi darajali zararli, og'ir	3.4 - juda zararli, o'ta og'ir, xavfli	
1.	Tog' zarbalari va tog' jinslari tushish ehtimoli mavjud joylar	mavjud emas	mavjud emas	-	-	-	-	mavjud

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)ga

17-ILOVA

Mehnat jarayonining og'irligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlari sinflarini yakuniy baholash jadvali

Mehnat jarayoni og'irligi ko'rsatkichlari		Mehnat sharoitlari sinflari					
		Maqbul (yengil jismoniy yuklama) - 1	Ruxsat etilgan (o'rtacha jismoniy yuklama) - 2	Zararli (og'ir mehnat)			
				3.1 – birinchi darajali zararli, og'ir	3.2 – ikkinchi darajali zararli, og'ir	3.3 – uchinchi darajali zararli, og'ir	3.4 - juda zararli, o'ta og'ir, xavfli
1	2	3	4	5	6	7	
1. Bir smenadagi tashqi mexanik ish birliklarida ifodalangan jismoniy dinamik og'irlik, kg. m.							
1.1. Mintaqaviy og'irlikda (asosan qo'l mushaklari va yelka poyasi ishtirokida), yukni 1 metrgacha olib borishda:							
erkaklar uchun	2500 gacha	5000 gacha	7000 gacha	9000 gacha	>9000		
ayollar uchun	1500 gacha	3000 gacha	4000 gacha	5500 gacha	>5500		
1.2. Umumiy og'irlikda (asosan qo'l mushaklari, korpus, oyoq ishtirokida), yukni 1 metrdan 5 metrgacha olib borishda:							
erkaklar uchun	12500 gacha	25000 gacha	30000 gacha	35000 gacha	45000 gacha	>45000	
ayollar uchun	7500 gacha	15000 gacha	20000 gacha	25000 gacha	27000 gacha	>27000	
Umumiy og'irlikda (asosan qo'l mushaklari, korpus, oyoq ishtirokida), yukni 5 metrdan ko'p masofaga olib borishda:							
erkaklar uchun	24000 gacha	46000 gacha	70000 gacha	90000 gacha	>90000		
ayollar uchun	14000 gacha	28000 gacha	40000 gacha	55000 gacha	>55000		
2. Qo'lda ko'tariladigan va tashib o'tiladigan yukning og'irligi (massasi), kg							
2.1 Boshqa ish bilan almashgan holda (marotabali) yukni ko'tarish va tashib o'tish (soatiga 2-martagacha)							
erkaklar uchun	15 gacha	30 gacha	30 ortiq				
ayollar uchun	5 gacha	9 gacha	>9				
2.2. Doimiy ish smenasida (marotabali) yukni ko'tarish va tashib o'tish.							
erkaklar uchun	5 gacha	15 gacha	30 gacha	>30			
ayollar uchun	3 gacha	6 gacha	>6				

2.3 Qo'lda ko'tariladigan va tashib o'tiladigan yukning og'irligi (massasi), kg.						
erkaklar uchun		870 gacha	>870			
ayollar uchun		300 gacha	>300			
2.4. Smenaning har soati davomida poldan, ish o'rni sathidan tashib o'tiladigan yuklarning jami og'irligi (massasi).						
erkaklar uchun	-	435 gacha	>435			
ayollar uchun	-	150 gacha	>150			
3. Qolipli (stereotip) ish harakatlari (smenadagi miqdori).						
3.1. Lokal og'irlikdagi (qo'l panjasi va barmoqlar mushaklari ishtirokida)	20000 gacha	40000 gacha	60000 gacha	>60000		
3.2. Regional og'irlikdagi (asosan yelka va qo'l mushaklari ishtirokidagi ishlarda).	10000 gacha	20000 gacha	30000 gacha	>30000		
4. Statik og'irlik. Smenada yukni ko'tarib turgan holatda statik og'irlikning o'lchami, zo'r berish, kg*						
— bir qo'l bilan	18000 gacha	36000 gacha	70000 gacha	>70000		
— ikki qo'l bilan	36000 gacha	70000	140000 gacha	>140000		
— gavda va oyoqlar mushaklari ishtirokida	43000 gacha	100000 gacha	200000 gacha	>200000		
5. Ishlash holati	Erkin, qulay holat (xodimni ixtiyoriga qarab holatni almashtirish "o'tirgan – turgan"). "Turgan" holatda 40 foizgacha smena vaqti davomida bo'lishi.	Vaqti-vaqti bilan noqulay, harakatsiz holatda 25 foizgacha smena vaqti davomida bo'lishi (tanani turli xil qismlarini bir-biriga nisbatan holatini o'zgartira olmaslik). "Turgan" holatda 60 foizgacha smena vaqti davomida bo'lishi.	Vaqti-vaqti bilan noqulay harakatsiz holatda 50 foizgacha smena vaqti davomida bo'lishi; majburiy holatda (tizzalarda, cho'kkalan-gan holatda) 25 foizgacha smena vaqti davomida bo'lishi. "Turgan" holatda 80 foizgacha smena vaqti davomida bo'lishi.	Noqulay, harakatsiz holatda 50 foizdan ko'proq smena vaqti davomida bo'lishi; majburiy holatda (tizzalarda, cho'kkalan-gan holatda) 25 foizgacha smena vaqti davomida bo'lishi. "Turgan" holatda 80 foizdan ko'proq smena vaqti davomida bo'lishi.		
6. Gavdani engashtirish (smenada marotaba)	Smena davomida 50 marta	Smena davomida 30° 51-100 martadan ko'p majburiy egilishlar	Smena davomida 30° 101-300 martadan ko'p majburiy egilishlar	Smena davomida 30° yuqori 300 marta majburiy egilishlar		
7. Keng sathda harakatlanish (smena davomida texnologik jarayon bilan bog'liq holda), km						
Gorizontal chiziq bo'ylab	4 gacha	8 gacha	12 gacha	>12		
Vertikal chiziq bo'ylab	2 gacha	4 gacha	8 gacha	>8		

Izoh: * – mazkur ko‘rsatkichlar faqat erkaklar uchun bo‘lib, ayollar uchun belgilangan ko‘rsatkichlar 40 foizga kamroq qabul qilinishi kerak.

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi

(0069-24-son SanQvaN)ga

18-ILOVA

**Mehnat jarayonining diqqat talabligi ko'rsatkichlari
bo'yicha mehnat sharoitlari sinflari**

Mehnat jarayoni tig'izligi ko'rsatkichlari	Mehnat sharoitlari sinflari				
	Maqbul (mehnat zo'riquvchan ligini yengil darajasi) - 1	Ruxsat etilgan (mehnat zo'riquvchan ligini o'rtacha darajasi) - 2	3-zo'riquvchi mehnat		
			1 daraja 3.1	2 daraja 3.2	3 daraja 3.3
1	2	3	4	5	6
1. Intellektual og'irlik:					
1.1. Ishning mazmuni	yechim qabul qilishni zaruriyati yo'q	instruksiya bo'yicha oddiy alternativ masalalarni hal qilish	erkin ritmdagi ma'lum algoritmlarni tanlab olish bo'yicha (instruksiya seriyasi bo'yicha ish) mukammal masalalarni hal qilish	vaqt tanqisligi sharoitlarida ma'lum algoritmlarni tanlab olish bo'yicha (instruksiya seriyasi bo'yicha ish) mukammal masalalarni hal qilish	
1.2. Signallarni (ma'lumotlarni) qabul qilish (idrok qilish) va ularni baholash	signallar ni qabul qilish, lekin harakatlarni korreksiya qilish talab qilinmaydi	signallarni qabul qilish bilan birga harakatlarni va operatsiyalarni korreksiya qilish	ularni nominal qiymati bilan ko'rsatkich larni haqqoniy qiymatlarini taqqoslash bilan signallar ni qabul qilish; ko'rsatkich larni haqqoniy qiymatlarini yakuniy baholash	o'zaro bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni majmuaviy baholash bilan birga signallarni qabul qilish; barcha ishlab chiqarish faoliyatini majmuaviy baholash	
1.3. Topshiriq ning murakkablik darajasi	topshiriqni qayta ishlash va bajarish	topshiriqni qayta ishlash, bajarish va uni tekshirib ko'rish	topshiriqni qayta ishlash, tekshirish va bajarilishini nazorat qilish	nazorat qilish va topshiriqni boshqa shaxslarga taqsimlab berish bo'yicha dastlabki ish	

1.4. Bajarayot-gan ishning xarakteri	individual reja bo'yicha ish	faoliyati davomida uni korreksiya qilish imkoniyati bo'lgan o'rnatilgan grafik bo'yicha ish	vaqt tanqisligi sharoitida ishlash	vaqti va ma'lumotlar tanqisligi sharoitlarida yakuniy natija uchun yuqori ma'suliyatli ish	
2. Sensor og'irlik: 2.1. E'tiborni jamlash davomiyligi (smenadagi vaqtning foizi)	25 foizgacha	26-50 foiz	51-65 foiz	66-75 foiz	
2.2. 1 soat ish vaqtidagi signallarning va xabarlarining zichligi (yorug'lik, tovushli)	75 gacha	75-175	176-300	301-600	
2.3. Baravar kuzatib turadigan ishlab chiqarish obyektlarning soni	3 gacha	4-8	9-15	>15	
2.4. Ko'rish analizatoriga tushadigan og'irlik					
